



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 326 sahifa,
6-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuv: mazmuni va ahamiyati.....	10
Doniyorova Iroda Baxtiyor qizi	
Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: milliy dastur, kompetensiya va xorijiy tajriba integratsiyasi.....	14
Omonova Nilufar Parda qizi	
The Role of Environmental Project-Based Learning in Developing EFL Learners' Productive Skills.....	19
Xujanova Shaxina Abdullayevna	
Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari	24
Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna	
Talabalarda stressga barqarorlikning nazariy va amaliy tahlili.....	29
Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Maxmudova Shahzoda Maksudovna	
Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati.....	32
Ramazonova Bahroy Sadriddinovna	
Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning institutsionlashuvi: boshqaruv, siyosat va raqamli transformatsiya strategiyalari.....	36
Nuraliyeva Dilshoda Yo'ichiboy qizi	
Aholini jismoniy sog'lomlashtirishda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	41
V. Sh. Raximov	
O'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning kasb tanlashdagi o'rni	46
Rayimqulova S., Pulatova R., Do'smatova S., Matyakubova Shohista Odamboy qizi	
Tarbiyachi shaxsining shakllanishida psixologik determinantlarning roli	51
Vasila Yusupova	
Kasbiy ta'lim o'quvchilarini ijodiy qobiliyatini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish	55
B. X. Sharopov	
Raqamli axborot makonida gumanistik g'oyalarni integratsiyalashning nazariy konsepsiyasi	59
Isanov Najotbek Ilmamat o'g'li	
Fanlararo integratsiya asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish imkoniyatlari.....	63
J. M. Fayzullayev, Ortiqova E'zoza Olimjon qizi	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari	67
Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li	
Xalqaro ta'lim dasturlari asosida kasbiy ta'lim muassasalarida metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	70
S. A. Qarshiboyev	
Ijtimoiy media kontentlari orqali talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy asoslari.....	74
Suyunov Rustam Sadriddinovich	
Ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganishning lingvistik xususiyatlari	78
Teshaboyeva Mohichexra Sohibjon qizi	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirish zarurati.....	81
Umarov Azizbek Vaxobovich	
O'quvchilarda badiiy matn leksikasini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar: muammo va yechim.....	85
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini ma'naviy tarbiyalashda Ahmad al-Farg'oniy asarlarini kompyuter imitatsion modellari asosida o'qitish metodikasi.....	89
S. S. Qulmurodova	
Enhancement of Periodontal Disease Management Strategies in Individuals With Chronic Hepatitis C Following Attainment of a Sustained Virological Response.....	92
Makhmudova Ugiloy Bakhtiyorovna	



Epithelial-Mesenchymal Transition's Possible Role in the Pathogenesis of Periodontitis (Literature Review).....	95
Burkhonova Zараfruz Kobilovna	
Gamifikatsiya asosida bo'lajak oligofrenopedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari mexanizmini tatbiq etish	102
Bozorboyev Javlon	
Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish omillari.....	106
Jamilova Dilsuza To'lqin qizi	
Elektrir va magnit maydonida yorug'likning ikkilamchi sinishi.....	110
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Alimardonov Husan Yorqin o'g'li, Ismatullayev Sayfiddin Panji o'g'li	
Lazer texnologiyalarining zamonaviy qo'llanilishi	114
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Muminova Sevinch Kamoliddin qizi, Begnayeve Dilbar Bobonazar qizi	
Fotometrik kattaliklar	117
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Mamatqulova Zebo Komiljon qizi, Xolmaxmatova Sevara Sirojiddin qizi	
Qutublangan yorug'lik manbalari	121
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Turdimurodova Kumushbibi, Normuminova Madina	
Tabiatdagi optik hodisalar	125
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Qudratova Sevinch Otabek qizi, Ulasheva Ruxshona Rustam qizi	
Rus tilini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan innovatsion yondashuvlardan foydalanish	129
Erkinova Nozima Utkir qizi	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini tadqiq etishning ilmiy-metodologik tahlili	133
Ikmatullayev G'. Z.	
Raqamli ta'lim platformalarida matematika o'qitishda sun'iy intellekt yordamida baholash tizimini takomillashtirish	136
Mirzayeva Shahlo Abduraxmanovna, Akbarov Ulug'bek, Abdivaliyeva Umida	
Linguistic and Pedagogical Foundations of Teaching English as a Foreign Language in The Uzbek Context.....	140
Shokirova Mushtariy	
Sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi transformatsion roli	144
Uzoqboyev Xojiakbar Qobuljon o'g'li	
Enhancing Collaborative Learning and Peer Feedback in EFL Classrooms Through Padlet: a Digital Approach to Group Work and Assessment.....	148
Veronica Khatamova	
Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning rasmlar asosida aqliy faoliyatini rivojlantirishning vizual-didaktik texnologiyalarini takomillashtirish.....	152
Meliqo'ziyev Abduraxmonjon Qahramonjon o'g'li	
Emotsional intellekt – hr menejerlarning qaror qabul qilish kompetensiyasining determinanti sifatida	157
Abdukarimov Muhammadjon Muratovich	
O'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning tizimli-pedagogik modeli: nazariya, metodologiya va amaliyot	162
Islamova Fotima Shamsiddinovna	
Barkamol yosh avlod fazilatlarini shakllantirishda milliy innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni.....	170
Olimova Dono Shakirovna, Baxtiyorova Shahnoza Mansurbekovna	
Development of Prevention of Professional-Pedagogical Deformation on the Basis of Health-Saving Technologies in Higher Educational Institutions.....	174
Saidova Parvina Mirzo kizi	
O'zbek xalq pedagogikasi mazmuni asosida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ilmiy nazariy asoslari	178
Rahmonqulova Guliza Faxriddin qizi	

Bolalarning maktabgacha yosh davrida emotsional rivojlanishiga oid nazariy qarashlar tavsifi.....	182
<i>Abduraxmonova Gulmira Arapjon qizi, Yuldasheva Umida Maxmudovna</i>	
Alohida ehtiyojli bolalar uy ta'limini tashkil etishning korreksion pedagogik tizimining tarkibiy komponentlari.....	186
<i>Jo'raxo'jayev Muhammadazizxo'ja Xalilxo'ja o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia vositalarining ahamiyati.....	190
<i>Umida Marasulova</i>	
Boshlang'ich funksiya va aniqmas integral.....	193
<i>Mirzayeva Shahlo, Isroilova Zahro, Erkinova Shahrizoda, Javliyeva Dilnura</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar adabiyoti kerakmi?!.....	196
<i>Dilfuza Shadiyeva</i>	
Experimental Study on the Psycho-Pedagogical Effectiveness of Mall-Based Multimodal Learning in Developing Pluricultural Competence	200
<i>Azimova Sevara Muzaffar qizi</i>	
Simulyatsion o'quv muhitida fizika o'qituvchilarining o'z-o'zini boshqarish va refleksiv kompetentligini oshirish	205
<i>Muradov Ilxomjon Abduxamid o'g'li</i>	
Ta'lim menejmentida strategik boshqaruv tushunchasining evolyutsiyasi.....	209
<i>Raximjonov Jamshid Rafiqjon o'g'li</i>	
Raqamli kompetentlik tushunchasining ilmiy-nazariy talqini va xorijiy hamda mahalliy tadqiqotlar tahlili	214
<i>Umirov Boboyor Baxtiyor o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyatlar samaradorligini oshirishda pedagogik multimedia vositalaridan foydalanish usullari.....	218
<i>Abdreimova Maftuna O'ktam qizi</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darsliklarining tuzilishi hamda o'quvchilar yoshiga muvofiqligi.....	223
<i>Bobolov Nuriddin Tojiyevich</i>	
Oliy ta'limda pedagoglarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalar	228
<i>Isabekov Bahodir Isabek o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik masalalari .	233
<i>Boydavletova Sohiba Abduganiyevna</i>	
Aksiologik yondashuv asosida tarbiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	239
<i>G'aybullayev Bobur Nomonjon o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati.....	243
<i>Toshpo'latova Muxlisa G'olib qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv kompetentligini rivojlantirishning mazmuni va ilmiy-nazariy pedagogik asoslari.....	248
<i>Mamatqulova Saboxat Abduraxmonovna</i>	
Maktabgacha ta'limda monitoring va baholash tizimini takomillashtirish.....	253
<i>Amanova Durdona Kaxramonovna</i>	
O'zbekiston yoshlarining ma'naviy va estetik tarbiyasida tasviriy san'at va zamonaviy pedagogik texnologiyalar.....	257
<i>Esanova Hulkar Abdurayim qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida eksperimental-tajriba faoliyatini tashkil etish	261
<i>Gafurova Dilnoza Saloxiddinovna</i>	
Ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi xavfsizlik hissiga ta'sirining nazariy va amaliy tahlili	266
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Qoldiboyeva Xayriniso Eldarovna</i>	
Milliy o'yinlarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari.....	269
<i>Ismatov Po'latjon Abdumannobovich</i>	
Ta'lim sifatini boshqarish jarayonida kvalimetrik parametrlarini takomillashtirishda xorijiy tajribalarning ahamiyati	273
<i>Karimova Maxbubaxon Mukimjonovna</i>	



Innovatsion ta'lim sharoitida bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli.....	278
<i>Mirzayeva Nigora Bozorovna</i>	
Matematika o'qitishda milliy qadriyatlarni aks ettirish	282
<i>Mirzayeva Shahlo, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi,</i> <i>Muxtorova Sevinch Asad qizi, Xolboyeva Mushtariy Zayniddin qizi</i>	
Ingliz tilida fe'l frazeoformalarining morfologik tuzilishiga xos umumiy xususiyatlar.....	285
<i>Jo'rayeva Nargiza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini o'stirishda interaktiv metodlarning ahamiyati.....	289
<i>Ramazonova Munisa Hoshim qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining lug'at boyligini oshirishda intellektual o'yinlar va interfaol usullardan foydalanish.....	294
<i>Raxmonova Gulrux Ubaydullayevna, Ibragimova Dildora Turabovna</i>	
Maktabgacha ta'limda pedagoglar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda uslubiy xizmat va hamkorlik mexanizmlarining samaradorligi.....	298
<i>S. A. Rahmonberdiyev</i>	
Yoshlarni destruktiv submadaniyatlar ta'siridan himoyalashning innovatsion pedagogik usullari	304
<i>Xasanova Marxabo Turayevna</i>	
Социально-психологические особенности домашнего насилия в условиях трансформации семьи и цифровизации общества	308
<i>Абдукадилова Лаура Юльбарсовна, Абдуллаева Азиза Комилжон кизи</i>	
Педагогические основы развития инновационной компетентности педагогов в системе дошкольного образования.....	315
<i>Гульнара Ахтямовна</i>	
Роль учебного процесса и творческой деятельности в сохранении психологического равновесия.....	320
<i>Коршубаева Рано Хазраткуловна</i>	



AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TARBIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

G'aybullayev Bobur Nomonjon o'g'li
 University of Business and Science o'qituvchisi

Annotatsiya: Aksiologik yondashuv asosida tarbiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Ta'lim jarayonida qadriyatlarning o'rni, ularni shakllantirish mexanizmlari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar vositasida o'quvchilarda ijtimoiy va ma'naviy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, aksiologik yondashuvni samarali joriy etish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlar, metodlar va vositalar ilmiy asosda bayon etilgan.

Kalit so'zlar: aksiologik yondashuv, qadriyat, tarbiya fani, innovatsion pedagogik texnologiyalar, kompetentlik, interfaol metodlar, refleksiya, ta'lim sifati, ma'naviy tarbiya.

Abstract: The theoretical and practical aspects of using innovative pedagogical technologies in teaching the subject of education based on the axiological approach are analyzed. Particular attention is paid to the role of values in the educational process, the mechanisms of their formation, and the development of students' social and spiritual competencies through modern pedagogical technologies. The pedagogical conditions, methods, and tools necessary for the effective implementation of the axiological approach are also scientifically substantiated.

Key words: axiological approach, value, education, innovative pedagogical technologies, competence, interactive methods, reflection, quality of education, spiritual education.

Аннотация: Проанализированы теоретические и практические аспекты использования инновационных педагогических технологий в преподавании предмета воспитания на основе аксиологического подхода. Особое внимание уделено роли ценностей в образовательном процессе, механизмам их формирования, а также развитию социальных и духовных компетенций учащихся посредством современных педагогических технологий. Научно обоснованы педагогические условия, методы и средства, необходимые для эффективного внедрения аксиологического подхода.

Ключевые слова: аксиологический подход, ценность, предмет воспитания, инновационные педагогические технологии, компетентность, интерактивные методы, рефлексия, качество образования, духовное воспитание.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari jadallashib borayotgan davrda ta'lim tizimi oldida faqatgina bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlay oladigan, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega barkamol shaxsni shakllantirish vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy jamiyatda yosh avlodni tayyorlash jarayoni nafaqat intellektual rivojlanishni, balki ularning qadriyatlar tizimini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Shu jihatdan qaraganda, ta'lim jarayonida aksiologik yondashuvni qo'llash zarurati tobora ortib bormoqda. Aksiologik yondashuv ta'lim mazmunini insoniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Bu yondashuv orqali o'quvchilarda Vatanga sadoqat, insonparvarlik, ijtimoiy mas'uliyat, bag'rikenglik, mehnatsevarlik kabi muhim sifatlarni shakllantirish mumkin. Ayniqsa, tarbiya fani bu jarayonda yetakchi o'rin egallaydi, chunki mazkur fan o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitish, ularni jamiyat hayotiga tayyorlash hamda axloqiy mezonlarni anglashga yo'naltirilgan.

Shu bilan birga, bugungi kunda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. An'anaviy o'qitish usullari o'rnini interfaol metodlar, raqamli ta'lim vositalari, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish kabi zamonaviy yondashuvlar egallamoqda. Bu texnologiyalar o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirib, ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Aksiologik yondashuvni innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish esa ta'lim jarayonining samaradorligini yanada oshiradi. Chunki bu integratsiya orqali nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda qadriyatli munosabatlar, ijtimoiy faol pozitsiya va mas'uliyat hissini shakllantirish imkoniyati kengayadi. Natijada ta'lim jarayoni shaxsga yo'naltirilgan, mazmunan boy va samarali tus oladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi aksiologik yondashuv asosida tarbiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari hamda amaliy imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida ushbu yondashuvning mazmun-mohiyati, pedagogik ahamiyati va uni samarali joriy etish mexanizmlari yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy ilmiy manbalarda aksiologik yondashuv asosan falsafiy-pedagogik konsepsiya sifatida qaraladi.

Eduard Shpranger o'zining "Hayot shakllari" asarida qadriyatlarni shaxs rivojining markaziy komponenti sifatida izohlaydi. U qadriyatlar insonning hayotiy faoliyatini yo'naltiruvchi ichki mezonlar ekanligini ta'kidlab, ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish zarurligini asoslaydi ^[1]. Shpranger nazariyasiga ko'ra, ta'lim tizimi nafaqat bilim beruvchi, balki qadriyatlarni shakllantiruvchi muhit bo'lishi lozim.

Milton Rokeach esa qadriyatlarni inson xulq-atvorini boshqaruvchi barqaror e'tiqodlar tizimi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, ta'lim orqali shakllantirilgan qadriyatlar shaxsning hayotiy qarorlarida hal qiluvchi rol o'ynaydi ^[2]. Shu sababli pedagogik jarayonda qadriyatlarga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llash ijtimoiy jihatdan faol va mas'uliyatli shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

John Dewey ta'limni tajriba va faoliyat bilan bog'lab, o'quvchilarning amaliy ishtirokini ta'minlovchi metodlarni ilgari suradi. Uning g'oyalari bugungi kunda innovatsion pedagogik texnologiyalar, xususan, muammoli ta'lim va loyiha asosida o'qitish metodlarining nazariy asosi sifatida keng qo'llanilmoqda ^[3]. Dewey ta'limni demokratik jarayon sifatida baholab, o'quvchilarni faol subyektga aylantirish zarurligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, K. Rogersning insonparvarlik pedagogikasi ham aksiologik yondashuv bilan bevosita bog'liq bo'lib, unda shaxsning ichki imkoniyatlarini ochish, o'zini anglash va o'zini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

MDH hududida faoliyat yuritgan olimlar tomonidan aksiologik yondashuv pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganilgan.

V.A. Slastenin pedagogik faoliyatni qadriyatlarga asoslangan tizim sifatida talqin qilib, o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirishda aksiologik yondashuv muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi ^[4]. Unga ko'ra, pedagogik jarayon samaradorligi o'qituvchining shaxsiy qadriyatlari va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq eta olishiga bog'liq.

I.F. Isayev o'qituvchining professional-pedagogik madaniyatini shakllantirishda qadriyatlar tizimi asosiy omil ekanligini qayd etadi ^[5]. U pedagogik faoliyatni nafaqat kasbiy, balki ma'naviy-axloqiy jarayon sifatida baholab, aksiologik yondashuvni o'qituvchi tayyorlash tizimiga joriy etish zarurligini asoslaydi.

N.V. Kuzmina pedagogik faoliyatning strukturaviy modelini ishlab chiqib, unda o'qituvchining kasbiy mahorati va kompetentligini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni muhim ekanligini ko'rsatadi ^[6].

O'zbek olimlari tomonidan ham aksiologik yondashuv va pedagogik texnologiyalar muammosi keng yoritilgan.

O'. Tolipov va M. Usmonboyeva pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish orqali o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ta'lim samaradorligini ta'minlash mumkinligini asoslab bergan ^[7].

N. Saidaxmedov yangi pedagogik texnologiyalarni o'qitish jarayoniga joriy etishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilib, ularning ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi ^[8].

K. Hoshimov va S. Nishonova tarbiya nazariyasini qadriyatlarga asoslangan holda yoritib, shaxsni shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rni beqiyos ekanligini qayd etadi ^[9].

M.G. Davletshin esa pedagogik psixologiya doirasida shaxs rivojida qadriyatlarning rolini chuqur tahlil qilib, o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish zarurligini ko'rsatadi ^[10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida aksiologik yondashuv asosida tarbiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini pedagogika, psixologiya va aksiologiya sohalariga oid ilmiy manbalarni qiyosiy va tizimli tahlil qilish tashkil etdi. Shuningdek, ilmiy maqolalar, monografiyalar, o'quv-metodik adabiyotlar hamda normativ-huquqiy hujjatlar mazmunan tahlil qilindi.



Tadqiqot davomida kuzatish, suhbat, pedagogik tahlil, qiyoslash va umumlashtirish metodlari qo'llanildi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning tarbiya fanidagi samaradorligini aniqlashda interfaol metodlarning amaliy qo'llanishi hamda ularning o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ta'siri o'rganildi. Olingan natijalar ilmiy jihatdan tahlil qilinib, umumlashtirish asosida tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida aksiologik yondashuv asosida tarbiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali o'rganildi. Tadqiqot jarayonida oliy ta'lim muassasasi talabalari ishtirokida an'anaviy hamda aksiologik yondashuv asosida tashkil etilgan darslar taqqoslab tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, aksiologik yondashuv asosida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning bilim darajasi bilan bir qatorda, ularning qadriyatlarga munosabati, ijtimoiy faoligi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarining sezilarli darajada oshishiga olib keldi.

Xususan, interfaol metodlar ("aqliy hujum", debat, klaster, rol o'ynash texnologiyalari) asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirib, ularni muammoli vaziyatlarga mustaqil yondashishga undadi. Natijada talabalarda axloqiy-etik masalalarga nisbatan ongli munosabat shakllanib, o'z fikrini asoslab berish, dalillash va himoya qilish ko'nikmalari rivojlandi. Bu esa aksiologik yondashuvning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish ayniqsa samarali bo'ldi. Talabalar tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy loyihalar ("Ma'naviy muhitni yaxshilash", "Yoshlar orasida kitobxonlikni rivojlantirish") orqali ularda ijtimoiy mas'uliyat, jamoaviy ishlash hamda muammolarni hal qilish kompetensiyalari shakllandi. Bu jarayonda aksiologik yondashuv asosida qadriyatlar mazmuni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashdi.

Shuningdek, raqamli pedagogik vositalardan (multimedia taqdimotlari, onlayn platformalar, interaktiv testlar) foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshirdi. Talabalar dars materiallarini chuqurroq o'zlashtirish bilan birga, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini ham rivojlantirdilar. Raqamli texnologiyalar orqali berilgan topshiriqlar o'quvchilarning refleksiv fikrlashini kuchaytirib, ya'ni ular o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini anglash va o'z-o'zini rivojlantirishga intila boshladilar.

Tajriba-sinov natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, aksiologik yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida quyidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatildi:

- o'quvchilarning darsga bo'lgan motivatsiyasi oshdi;
- qadriyatlarga nisbatan ongli va barqaror munosabat shakllandi;
- mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalari rivojlandi;
- pedagogik vaziyatlarga baho berish va qaror qabul qilish malakalari takomillashdi;
- ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalar mustahkamlandi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, aksiologik yondashuvni samarali amalga oshirish ko'p jihatdan o'qituvchining kasbiy mahorati, metodik tayyorgarligi va innovatsion faoliyatga tayyorligiga bog'liq. Agar o'qituvchi qadriyatlarga yo'naltirilgan ta'limni ongli ravishda tashkil etsa va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan o'rinni foydalansa, ta'lim jarayonining samaradorligi sezilarli darajada ortadi.

Shu bilan birga, ayrim muammolar ham kuzatildi. Jumladan, barcha o'qituvchilarning innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha yetarli tajribaga ega emasligi, dars jarayonini aksiologik yondashuv asosida loyihalash ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi kabi holatlar mavjud. Bu esa maxsus metodik qo'llanmalar ishlab chiqish hamda o'qituvchilar malakasini oshirish kurslarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, olingan natijalar aksiologik yondashuv asosida tarbiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur yondashuv ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan holda tashkil etishga, o'quvchilarda muhim ijtimoiy va ma'naviy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, aksiologik yondashuv asosida tarbiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta'lim tizimining muhim va samarali yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mazkur yondashuv ta'lim jarayonining mazmunini boyitib, uni shaxsga yo'naltirilgan holda tashkil etishga imkon beradi. Natijada o'quvchilarda nafaqat bilim va ko'nikmalar, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat, mustaqil fikrlash hamda refleksiv faoliyat kabi muhim sifatlar shakllanadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash esa aksiologik yondashuvni amaliyotga samarali joriy etish vositasi sifatida xizmat qiladi. Interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, raqamli texnologiyalar va muammoli ta'lim o'quvchilarning faolligini oshirib, ularni ta'lim jarayonining subyekti sifatida shakllantiradi hamda o'z fikrini erkin ifoda etish, tahlil qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, aksiologik yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchining kasbiy mahorati, metodik kompetentligi va innovatsion faoliyatga tayyorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida aksiologik yondashuv asoslarini chuqur o'rgatish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish bo'yicha tizimli ishlarni kuchaytirish zarur.

Shuningdek, ta'lim muassasalarida qadriyatlarga yo'naltirilgan pedagogik muhitni yaratish, metodik ta'minotni takomillashtirish va o'qituvchilarning malakasini oshirish orqali mazkur yondashuvning samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Spranger E. Lebensformen. – Halle: Niemeyer, 1928. – 45-bet.
2. Rokeach M. The Nature of Human Values. – New York: Free Press, 1973. – 12-bet.
3. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938. – 89-bet.
4. Сластенин В.А. Педагогика. – Москва: Академия, 2002. – 134-бет.
5. Исаев И.Ф. Профессионально-педагогическая культура учителя. – Москва, 2004. – 78-бет.
6. Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя. – Москва, 1990. – 56-бет.
7. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2010. – 23-bet.
8. Саидахмедов Н. Янги педагогик технологиялар. – Тошкент: Молия, 2003. – 41-бет.
9. Хошимов К., Нишонова С. Тарбия назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2012. – 65-бет.
10. Давлетшин М.Г. Педагогик психология асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – 102-бет.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.